

**YANGI O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY STRATEGIYASINING
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ РЕАЛИЗАЦИИ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
СТРАТЕГИИ УЗБЕКИСТАНА**

**DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF THE ECONOMIC
STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN**

Hamidova Shahzoda Odiljanovna

Andijon Mashinasozlik Instituti. Stajyor o‘qituvchi.

To‘xtamurotov Axmadali Muhammadali o‘g‘li

Andijon Mashinasozlik Instituti. Stajyor o‘qituvchi.

Jalolov Farxod Shuhratbek o‘g‘li

Andijon Mashinasozlik Instituti. Stajyor o‘qituvchi.

E-mail: ahmadalitohtamurotov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonning 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini uchinchi yo‘nalishi- “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash”, maqsadini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeiini mustahkamlashga erishish va makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash, iqtisodiy islohotlar strategiyasining iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy iqtisodiyot, YaIM, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, monetar siyosat, inflyatsiya, makroiqtisodiyot, fiskal siyosat, raqamli iqtisodiyot, eksport, biznes muhiti, klaster.

АННОТАЦИЯ

В данной статье третье направление Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы – «быстрое развитие национальной экономики и

обеспечение высоких темпов роста» направлено на реализацию цели повышения уровня населения, проживающего в Узбекистане, решение социальных проблем, достижение укрепления экономических и политических позиций страны в мировом сообществе и обеспечение макроэкономической стабильности и экономического роста, основная цель экономических реформ, стратегия экономических реформ.

Ключевые слова. Национальная экономика, ВВП, свободные экономические зоны, малые промышленные зоны, денежно-кредитная политика, инфляция, макроэкономика, фискальная политика, цифровая экономика, экспорт, бизнес-среда, кластер.

ABSTRACT

In this article, the third direction of the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 – “rapid development of the national economy and ensuring high growth rates” is aimed at the implementation of the goal of the population living in Uzbekistan increasing the level, solving social problems, achieving strengthening of the country’s economic and political position in the world community and ensuring macroeconomic stability and economic growth, the main goal of economic reforms strategy of economic reforms.

Keywords. National economy, GDP, free economic zones, small industrial zones, monetary policy, inflation, macroeconomics, fiscal policy, digital economy, export, business environment, cluster.

Iqtisodiy rivojlanishning mazmuni, omillari, o‘lchamlari va muammolarini o‘rganish doimo iqtisodiy fanlar hamda davlat siyosatining asosiy vazifalaridan bo‘lib kelgan. Ana shu kabi muhim masalalarni samarali hal qilish ko‘p jihatdan kishilarning iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga hos xususiyatlari va sir-asrorlari, ularning talab va xususiyatlari, qonun-qoidalari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsad va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog‘liqdir. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash bo‘yicha tanlangan strategiya va inqirozga qarshi choralar dasturni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur‘atlarini ta‘minlash, aholining moddiy farovonligini yuksaltirishga erishmoqda.

Bugungi kunda raqobat kurashi tobora kuchayib, shiddatli tus olayotgan va jahon bozori konyukturasi keskin o‘zgarib borayotgan murakkab vaziyatda hamda mamlakat aholisi soni va ularning iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabining oshib borishi hisobga olinib, Respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va YaIMning barqaror

o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining kelajakda mamlakatni yanada rivojlantirishga mo'ljallangan strategik vazifalarida "2030- yilga borib mamlakatimizda YaIM hajmini kamida 2 barobar oshirish..." masalasining qo'yilishi va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning – "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish – eng muhim ustuvor— vazifamizdir" – deb ta'kidlashlaridan hamda "2022–2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida iqtisodiyotni o'sish va barqarorlikni ta'minlash doirasida 2022- yilda inflyatsiyani 9 foizgacha va 2023- yilda 5 foiz va fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish; 2026- yil yakunigacha bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarish; 2023- yildan qo'shilgan qiymat solig'i 12 foizgacha va bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik uchun foyda solig'i 15 foizgacha tushirish; 2026- yilgacha energiya samaradorligi 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar 10 foizga qisqartirish; sharoiti «og'ir» bo'lgan hududlarda 2025- yil 1 yanvargacha yangi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq 1 foiz, yer solig'i, mol-mulk solig'i hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash tizimi joriy etish; 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalar tugatilishi bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy hayotni har tomonlama rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu esa Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash naqadar dolzarb masalalardan ekanligi ko'rinib turibdi.[1]

2021- yilning 6- noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qayta saylangan mamlakat rahbari tomonidan kelgusi besh yil uchun eng asosiy ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ilgari surildi. Prezident taqdim etgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat bo'lib, u besh yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning doirasida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli islohotlarning uzviy davomi ekanligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining **uchinchi yo'nalishi — milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish** bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni Harakatlar strategiyasining **iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari** doirasida boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida baholash mumkin.

Keng ko'lamlı islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda izchil islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asosiy maqsad — aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish

2022–2026- yillardagi ustuvor vazifa sifatida aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish koʻzda tutilganligida ham oʻziga xos maʼno bor. Oʻtgan besh yil, yaʼni 2017–2021- yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida **sanoatning yetakchi tarmoqlari (toʻqimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xoʻjaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish** strategiyalari qabul qilindi.

Shuningdek, qishloq xoʻjaligida erkin raqobatni taʼminlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan, paxta va gʻalla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirildi. Oʻz navbatida, hududlarning iqtisodiy potentsialini koʻpaytirish maqsadida **erkin iqtisodiy zonalar** tashkil etildi, ularga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun tegishli imtiyoz va preferentsiyalar taqdim etildi. Yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan **kichik sanoat zonalarini** bunyod qilinib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilmalar yaratildi. Yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega boʻlgan innovatsion texnoparklar tashkil etilib, ularda zamonaviy ilmfan yutuqlari orqali yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

Shu bilan birga, Oʻzbekistonda **turizm sohasini tubdan isloh qilish** orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi, sayyohlik xizmatlari tarkibi (ziyosat turizmi, tibbiy turizm, kino turizmi va h.k.)ning yana ham kengaytirilishi natijasida mamlakatning sayyohlik potentsiali yildan-yilga yuksalib bormoqda.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026- yillarda yuqorida taʼkidlab oʻtilgan yoʻnalishlarda hayotga tatbiq etilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, **aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish**, 2030-yilga borib esa jon boshiga hisoblaganda, Oʻzbekistonning aholi daromadlari oʻrtacha koʻrsatkichdan yuqori boʻlgan davlatlar qatoriga kirishi maqsad qilingan.

Bunga esa, oʻz navbatida, **xususiy sektorni ragʻbatlantirish** va uning ulushini oshirish, **toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etish** hamda **drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish** orqali erishish koʻzda tutilgan.

Iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YaIM hajmining ortishiga, yaʼni aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan ichki mahsulot hajmining koʻpayishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasini pasaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash

2017- yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri — bu milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali **ichki valyuta bozorining bosqichma-bosqich liberallashtirilishi** bilan bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi.

Shu bilan birga, **pul-kredit (monetar) siyosati sohasida keng ko‘lamli islohotlar** amalga oshirildi, jumladan, to‘lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasini **cheklovsiz sotib olish** imkoni yaratildi, **naqd pul muammosi** hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan **bankomatlar faoliyati** yo‘lga qo‘yildi.

Valyuta va tashqi savdoning liberallashtirilishi natijasida **tashqi savdo hajmi** ham jadal o‘shirildi bormoqda. Shuningdek, iqtisodiyotga bozor mexanizmlari tamoyillarining joriy etilishi, narxlarning erkinlashtirilishi va shu bilan bog‘liq boshqa islohotlar ortidan mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta‘minlash, **inflyatsiyani past darajada va barqaror ushlab turish ustuvor vazifa** sifatida oldinga chiqdi.

Shu bois, Taraqqiyot strategiyasida **makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish** navbatdagi vazifa sifatida tasdiqlandi. Zero, mamlakatda ichki narxlar barqarorligining ta‘minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy muvozanatning kafolati hisoblanib, bu, o‘z navbatida, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hamda rivojlantirish dasturlarining muvaffaqiyati uchun zarur mezon sanaladi.

Inflyatsiyaning past va barqaror ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘shirdagi muvozanatni ta‘minlashda, shuningdek, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholi yashash darajasini oshirishda muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o‘shir sur‘atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim.[2]

Fiskal barqarorlikni ta‘minlash

O‘tgan besh yil ichida O‘zbekistonning fiskal sohadagi siyosati tubdan o‘zgardi. Xususan, **byudjetning shaffofligi va ochiqligi** ta‘minlandi, soliqqa tortishni soddalashtirish va takomillashtirish bo‘yicha **keng ko‘lamli islohotlar** amalga oshirildi, **yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish** yuzasidan bir qator samarali chora-tadbirlar bajarildi.

Byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish tizimi takomillashtirilib Oliy Majlisning byudjet jarayonidagi roli va o‘rni mustahkamlanadi, mahalliy hokimiyat vakillik organlarining vakolatlari kengaytirildi, “Tashabbusli byudjet” loyihasi ishga tushirildi.

O‘zbekiston Respublikasining **suveren xalqaro obligatsiyalari** chiqarilib, undan tushgan mablag‘lar mamlakat farovonligi yo‘lida strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirildi.

Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026- yillarda O‘zbekistonda **byudjet va tashqi qarz barqarorligini ta’minlash** vazifasiga ustuvorlik berilmoqda. Chunki mamlakatda fiskal defitsitning ortib borishi va tashqi qarzlarning xalqaro darajada belgilangan me’yorlardan oshib ketishi milliy iqtisodiyotga xavf tug‘dirishi mumkin.

Mazkur strategiyada byudjet mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash maqsadida **mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini kengaytirishga** alohida e’tibor qaratilishi ko‘zda tutilgan.

Fiskal sohada belgilanayotgan mazkur ustuvor vazifalar avvalgi islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanib, bu bir tomondan, byudjet daromadlarini oqilona shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarining samarali sarflanishiga sabab bo‘ladi. Pirovard natijada esa mamlakatda iqtisodiy faollik ortib, makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yillikda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasidagi bir qator strategik vazifalar belgilangan.

Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash; biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish; kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish; hududlarni va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan.

Mazkur vazifalar Harakatlar strategiyasi doirasida samarali amalga oshirilgan islohotlarning uzviy davomi yoki boshqacha aytganda, yangi muvaffaqiyatning boshlanishi bo‘lib, ular mamlakatning iqtisodiy farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Iqtisodiyotda kutilishicha, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda **aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot — 1,6 baravar oshadi. 2030 yilga borib esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4000 AQSH dollariga yetkazish** hamda «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish rejalashtirilgan.

Yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha 5%gacha pasaytirish, shuningdek, davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish, uning hajmini 2023 yildan boshlab YaIMga nisbatan 3 foizdan ko‘p bo‘lmagan darajada ta’minlash rejalashtirilgan.

Har bir tuman byudjetining kamida 5% «Fuqarolar budjeti» dasturi doirasida aholining takliflari asosida aniqlangan eng dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. **Tashqi qarz darajasi yiliga 4,5 mlrd dollardan oshmaydi.**

YaIMda sanoat ulushini oshirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko‘paytirish rejalashtirilmoqda. Buning uchun mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya sanoati, transport sohalaridagi 23 ta yirik

korxonalar mustaqil ravishda ichki va tashqi moliya bozorlariga chiqishi, xalqaro kredit reytingini qo‘lga kiritish orqali investitsiya loyihalariga mablag‘ jalb etishi kerak.[3]

Energiya resurslari va sanoat tarmoqlari

Energetika sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish doirasida elektr energiyasini yetkazib berishda monopoliyani bekor qilish, sohada bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan .

Shuningdek, energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda liberallashtirish, sohaga investitsiyalarni keng jalb etish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish uchun ijtimoiy iste‘mol standartini kiritish rejalashtirilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga **neft-gaz mahsulotlari uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlash** rejalashtirilgan.

Shuningdek, **mis sanoati klasterini tashkil etish** orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko‘paytirish hamda **8 mlrd dollarlik mahsulot** ishlab chiqarish kutilmoqda.

Tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8% dan **20%ga** yetkazish va kimyo sanoatida 2 mlrd AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarishga erishish rejalashtirilgan.

Avtomobil sanoatida kooperatsiyani rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish ko‘zda tutilgan. Chirchiq shahrida Toshkentdagi qator zavodlarni ko‘chirgan holda **qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoat klasteri** tashkil etadi.

Kelgusi besh yilda **qurilish materiallari va to‘qimachilik** mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 baravar, **charm-poyabzal** mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 baravar, **farmatsevtika** mahsulotlarini ishlab chiqarish 3 baravar, **elektrotexnika** sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish 2 baravar, eksport hajmi 3 baravar, **mebel** ishlab chiqarish hajmi 2,8 baravarga oshiriladi. Ichki bozorni mahalliy dori vositalari bilan ta‘minlash darajasini 80%ga yetkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish ham rejalashtirilgan, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat korxonalarini xususiylashtirish hisobiga 14 ta faoliyat turi bo‘yicha monopoliyalarning bekor qilinishi kutilmoqda.

Dastur, shuningdek iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash, «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning **energiya samaradorligini 20%ga oshirishni** nazarda tutadi.

2026- yilga kelib elektr **energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini soatiga qo'shimcha 30 mlrd kvtgacha oshirish** va soatiga jami 100 mlrd kvtgacha yetkazish rejalashtirilgan.

2026- yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 25%ga yetkazilishi evaziga yiliga qariyb 3 mlrd kub metr tabiiy gaz tejab qolinadi.

O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash rejalashtirilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarining **havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini** bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10%ga **qisqartirish** rejalashtirilmoqda.[4]

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy «drayver» sifatida belgilanib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishni ta'minlash ko'zda tutilgan.

2026- yil yakuniga qadar iqtisodiyotning real sektori, moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70%ga yetkazish ko'zda tutilgan.

Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravarga, ularning eksportini esa 10 baravar oshirish va 500 million AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

Kelgusi besh yilda 120 mlrd AQSH dollari miqdorida, jumladan 70 mlrd dollar miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSH dollarga teng investitsiya jalb etilishi kutilmoqda.

Surxondaryo viloyatida «Investorlarga ko'mak markazi», Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan «Biznesga ko'maklashish markazi», Toshkent shahrida esa «Ilg'or loyihalar va injiniring markazi» va har bir tumanda tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatadigan «Innovatsiya va texnologiya markazlari» tashkil etilishi rejalashtirildi.[4]

Poytaxtda har yili «**Toshkent xalqaro investitsiya forumi**» o'tkaziladi.

Besh yilda **fond bozori aylanmasini** 200 mln AQSH dollaridan 7 mlrd AQSH dollariga yetkazish, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026- yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish rejalashtirilmoqda.

Eksport hajmlarini 2026- yilda **30 mlrd AQSH dollariga yetkazish** (2021- yil yakunlari bo'yicha — 16,6 mlrd dollar), xususiy sektorning eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1mld AQSH dollariga yetkazish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya va boshqa xizmatlar, jumladan, dasturiy ta'minotlar eksportini 1,7 baravar oshirib, ular hajmini 4,3 mlrd AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

Yerlar dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5%ga yetkazish rejalashtirilgan.

Tumanlar aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtiriladi.

Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish rejalashtirilmoqda. 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirib, aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish ko'zda tutilgan.

Intensiv bog'lar maydonini 3 baravar, issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirish, eksport salohiyatini yana 1 mlrd AQSH dollariga oshirish prognoz qilinmoqda.

Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturi doirasida **kamida 7 mlrd kub metr suvni iqtisod qilish**, suv xo'jaligi obyektlarida elektrenergiyasi iste'molini kamaytirish, ularni davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish rejalashtirilmoqda.[6]

Bundan tashqari, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5–2 baravar ko'paytirish kutilmoqda.

14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida besh yillik hududiy dasturlar amalga oshiriladi. Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4–1,6 baravarga oshirish vazifasi qo'yilgan.

Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda **“millionlik shaharlar”**ga aylantirish rejalashtirilmoqda. 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish, Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50%ga yetkazish rejalashtirilgan.

Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi **«Shaharlar qulayligi» indeksi** joriy etilishi kutilmoqda.

To'rtta hududda Toshkent shahrida barpo etilgan «INNO» innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparklari paydo bo'ladi.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish, renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o'rniga 19 mln kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko'chib o'tishi uchun sharoit yaratish ko'zda tutilmoqda.

«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida hududlarning «o'sish nuqtalari»dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish davom ettiriladi.

Hududlarda qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstantsiyani qurish va yangilash rejalashtirilgan.[5]

Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87%ga yetkazish (2020 yilda — 67,4%), 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash rejalashtirilmoqda.

Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimi shahar hududidan tashqariga chiqarilib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlar barpo etiladi.

Keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmi 3 baravarga oshishi, **sohada jami 3,5 mln yangi ish o'rinlari yaratilishi** kutilmoqda.

Savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish kutilmoqda (hozir bu YaIMning 50%dan ortig'ini tashkil qiladi). Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirishda sohadagi tadbirkorlik sub'yektlariga qo'shimcha imtiyozlar beriladi.

Mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish, xorijiy turistlar sonini 9 mlnga yetkazish, shuningdek, 2026- yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va «Aydar-Arnasoy» ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etiladi, 300 mln AQSH dollariga teng loyihalarni amalga oshirilib, 25 ming ish o'rinlari yaratiladi.

Samarqandning "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi 5 yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish rejalashtirilgan. 2022- yilda "Abadiy Shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazi va zaruriy infratuzilma tashkil etiladi.[7]

Qoraqalpog'istonda va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish, Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizmni rivojlantirish, Xorazm, Buxoro va Toshkent viloyatlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish, shuningdek, Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash rejalashtirilgan.

Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish, shuningdek, Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish ko'zda tutilgan. [8]

Tan olib aytish joizki, o'tgan 5 yil davomida mamlakatimizda yangi O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish borasida qator

tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi. O'tgan 5 yil davomida ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega.

O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi 2017- yilda 27,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda 62 foizni tashkil qilmoqda, 2030- yilga borib esa mazkur qo'rsatkichni 80 foizga yetkazish maqsad qilinganligi ushbu sohada ham ulkan marralarni qo'yayotganligimizdan dalolat beradi. Bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 2016- yili 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021- yilga kelib 28 foizni tashkil qilmoqda, bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Xalqimiz salomatligini ta'minlash doimo ustuvor vazifa bo'lgan. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2017- yilda sog'liqni saqlash tizimiga byudjetdan ajratilgan jami mablag'lar 7,1 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilga kelib bu ko'rsatkich 14,8 trillion so'mga yetdi. Prezident o'z nutqida ushbu sohaga yo'naltiriladigan mablag'larni 2 barobar oshirish, jumladan, kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish mo'ljallanayotganini e'lon qilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan zahmatkash shifokorlarning mehnatlariga davlat tarafidan bo'layotgan yuksak e'tibor namunasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekistondagi asosiy iqtisodiy islohotlar 2017- yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilingan Davlat dasturi asosida izchil amalga oshirildi.

Xususan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, biznesga qulay muhit yaratish, maqbul infratuzilmani shakllantirish, qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish, iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va boshqalarga qaratilgan islohotlar jadal olib borildi.

Yana shuni aytish joizki, olib borilgan islohotlar natijalari tahlili ularning yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Islohotlarning qisqa va o'rta muddatli maqsadlari izchil amalga oshirilib, belgilangan mezonlarga erishildi. O'zbekistonning ko'plab xalqaro reytinglardagi o'rni jadal yuksalib borayotgani ham buning yaqqol dalilidir.[10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022- yildagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 3- dekabrda PQ-31-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 27- yanvardagi PQ-104 sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- apreldagi PQ-214-sonli "Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori.
6. Vazirlar Mahkamasining 21.12.2021- yildagi "Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 765-son qarori.
7. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

Internet saytlari:

8. www.lex.uz
9. www.gov.uz
10. www.stat.uz
11. <https://strategy.uz/index.php?news=1435>